

**POSSIBILITIES OF NONVERBAL UNITS IN CREATING A SPEECH PORTRAIT IN
TOURIST COMMUNICATION****R. M. Yaqubjonova***Lecturer**Andijan State Institute of Foreign Languages**Email: yaqubjonovaruzixon@gmail.com**Science ID: MAN-0925-0043**Andijan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: tourist communication, nonverbal unit, speech portrait, communicative behavior, facial expression, gesture, paralinguistics, communicative role, pragmatic marker, hospitality.

Received: 10.09.26**Accepted:** 11.09.26**Published:** 12.09.26

Abstract: The article examines the functional and pragmatic potential of nonverbal units in shaping the speech portrait of participants in tourist communication. A speech portrait is interpreted as a multilayered phenomenon that is not limited to verbal units but is also manifested through facial expressions, gestures, gaze, body posture, vocal characteristics, and communicative distance. The role of nonverbal markers observed in the communicative behavior of guides, service staff, hosts, and tourists in expressing sincerity, professional composure, attentiveness, hospitality, and communicative openness is identified. Based on a comparative analysis of English and Uzbek tourist communication materials, the study substantiates that the same communicative role may be constructed through different combinations of nonverbal means in different cultural environments. The identificational, characterizing, and pragmatic functions of nonverbal units within the structure of the speech portrait are distinguished.

**TURISTIK MULOQOTDA NOVERBAL BIRLIKLARNING NUTQIY PORTRET
YARATISH IMKONIYATLARI****R. M. Yaqubjonova***O'qituvchi**Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon**Email: yaqubjonovaruzixon@gmail.com**Ilmiy identifikatsiya raqami: MAN-0925-0043*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: turistik muloqot, noverbal birlik, nutqiy portret, kommunikativ xulq, mimika, jest, paralingvistika, kommunikativ rol, pragmatik marker, mehmondo'stlik.

Annotatsiya: Maqolada turistik muloqot ishtirokchilarining nutqiy portretini shakllantirishda noverbal birliklarning funksional va pragmatik imkoniyatlari tadqiq etiladi. Nutqiy portret verbal birliklar bilan chegaralanmaydigan, mimika, jest, nigoh, tana holati, ovoz xususiyatlari va kommunikativ masofa orqali ham yuzaga chiqadigan ko'p qatlamli hodisa sifatida talqin qilinadi. Gid, xizmat ko'rsatuvchi xodim, mezbон va turistning kommunikativ xulqida kuzatiladigan noverbal markerlarning samimiyligi, kasbiy vazminlik, e'tibor, mehmondo'stlik va kommunikativ ochiqlikni ifodalashdagi o'rni aniqlanadi. Ingliz va o'zbek turistik muloqoti materiallarini qiyoslash asosida bir xil kommunikativ rol turli madaniy muhitlarda noverbal vositalarning turlicha kombinatsiyasi orqali shakllanishi asoslanadi. Noverbal birliklarning nutqiy portret tarkibidagi identifikatsion, xarakterlovchi va pragmatik funksiyalari farqlanadi.

**ВОЗМОЖНОСТИ НЕВЕРБАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В СОЗДАНИИ РЕЧЕВОГО
ПОРТРЕТА В ТУРИСТИЧЕСКОМ ОБЩЕНИИ**

Р. М. Якубжоновна

Преподаватель

Андижанский государственный институт иностранных языков

Email: yaqubjonovaruzixon@gmail.com

Научный идентификационный номер: MAN-0925-0043

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: туристическое общение, невербальная единица, речевой портрет, коммуникативное поведение, мимика, жест, паралингвистика, коммуникативная роль, прагматический маркер, гостеприимство.

Аннотация: В статье исследуются функциональные и прагматические возможности невербальных единиц в формировании речевого портрета участников туристического общения. Речевой портрет рассматривается как многослойное явление, не ограничивающееся вербальными единицами и проявляющееся также посредством мимики, жестов, взгляда, положения тела, особенностей голоса и коммуникативной дистанции. Определяется роль невербальных маркеров, наблюдаемых в

коммуникативном поведении гида, обслуживающего персонала, хозяина и туриста, в выражении искренности, профессиональной сдержанности, внимания, гостеприимства и коммуникативной открытости. На основе сопоставления материалов английского и узбекского туристического общения обосновывается, что одна и та же коммуникативная роль в различных культурных средах может формироваться посредством различных комбинаций невербальных средств. Разграничиваются идентификационная, характеризующая и прагматическая функции невербальных единиц в структуре речевого портрета.

Kirish. Nutqiy portret shaxsning kommunikativ faoliyatida namoyon bo‘ladigan individual va ijtimoiy xususiyatlarni aniqlash imkonini beruvchi murakkab hodisadir. Uning shakllanishida leksik tanlov, grammatik qurilish, nutq uslubi va kommunikativ strategiyalar bilan bir qatorda nolisoniy xatti-harakatlar ham ishtirok etadi. Ayniqsa, turistik muloqotda kommunikant haqidagi dastlabki tasavvur ko‘pincha uning nima deyishidan oldin qanday kutib olishi, qanday qarashi, qaysi tana holatini tanlashi va nutqini qanday ohangda tashkil etishi orqali yuzaga keladi. Shu jihatdan noverbal birliklar nutqiy portretning tashqi bezagi emas, uning pragmatik mazmunini shakllantiruvchi komponent sifatida namoyon bo‘ladi.



1-rasm. Turistik muloqot subyektlarining noverbal vositalar orqali kommunikativ portretini shakllantirish modeli

Noverbal xulqning shaxslararo munosabatni shakllantirishdagi ahamiyati M. Argyle tadqiqotlarida nigoh, tana orientatsiyasi va kinetik harakatlarning kommunikativ funksiyalari orqali asoslangan [1]. A. Kendon jestni nutqdan ajratilgan jismoniy harakat emas, kommunikativ mazmunni ko‘rinadigan shaklda yuzaga chiqaruvchi faoliyat sifatida baholaydi [2]. J. Burgoon, L. Guerrero va K. Floyd esa noverbal xulqning munosabatni shakllantirish, boshqarish hamda kommunikant haqidagi taassurotni yuzaga keltirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [3]. Ushbu

qarashlar nutqiy portretni verbal va noverbal belgilar o‘zaro ta’sirida shakllanadigan kommunikativ tuzilma sifatida o‘rganishga asos beradi.

Turistik diskursda mazkur masala alohida ahamiyat kasb etadi. Gid, mehmonxona xodimi yoki mezbonning kommunikativ portreti uning kasbiy rolga doir tasavvurni shakllantiradi. Tabassum, nigohning yo‘nalishi, bosh harakati, qo‘l jestlari, tana holati va ovoz parametrlari samimiylik, ishonchlilik, e’tibor yoki kasbiy vazminlik kabi xususiyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Dissertatsiyada ham noverbal birliklarning turistik muloqot subyektlari nutqiy portretini shakllantirish, samimiylik va mehmondo‘stlikni ifodalashdagi funksional ahamiyati alohida ilmiy natija sifatida belgilangan.

Ingliz va o‘zbek turistik muloqotida kommunikativ portretning shakllanish mexanizmlari to‘liq aynanlashmaydi. Kasbiy xushmuomalalik, samimiylik yoki hurmat har ikki muhit uchun kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularni yuzaga chiqaruvchi noverbal markerlarning tanlanishi va intensivligi milliy-madaniy me’yorlar bilan bog‘liq. Shu sababli nutqiy portretni faqat shaxsning individual xususiyatlari bilan emas, kommunikativ rol va lingvomadaniy muhitning o‘zaro munosabati asosida tahlil qilish zarur.

Maqolaning maqsadi turistik muloqotda noverbal birliklarning nutqiy portret yaratish imkoniyatlarini aniqlash, ularning kommunikanntni xarakterlovchi pragmatik funksiyalarini tasniflash hamda ingliz va o‘zbek kommunikativ muhitida nutqiy portretning noverbal shakllanish xususiyatlarini qiyosiy asoslashdan iborat.

Natijalar. Tahlil noverbal birliklarning turistik muloqotda kommunikanntning nutqiy portretini bir martalik belgi orqali emas, bir necha vositaning vaziyatga mos uyg‘unlashuvi orqali shakllantirishini ko‘rsatdi. Mimika, jest, nigoh, tana holati va ovoz parametrlari kommunikanntning kasbiy roli bilan birlashganda uning samimiyligi, vazminligi, e’tiborliligi yoki mehmondo‘stligi haqidagi pragmatik tasavvur yuzaga keladi. Shu jihatdan nutqiy portret noverbal belgilar yig‘indisi emas, kommunikativ xulqning yaxlit tavsifi sifatida namoyon bo‘ladi. [1, 33-b.; 2, 12-b.].

Gidning nutqiy portretida noverbal birliklar, avvalo, kasbiy kompetentlik va kommunikativ ochiqlikni namoyon qiladi. Turistik obyekttni tushuntirish jarayonida adresatga yo‘naltirilgan nigoh, izoh mazmuniga muvofiq qo‘l harakati, barqaror tana holati va nutq sur’atining boshqarilishi verbal axborotning ishonchliligini kuchaytiradi. Bunda jest shunchaki aytilgan fikrni takrorlamaydi, balki obyekttni ajratish, diqqatni kerakli nuqtaga ko‘chirish va izohning muhim qismini belgilash vazifasini bajaradi. [1, 24-b.]. Natijada, gidning nutqiy portretida bilimdonlik, boshqaruvchanlik va ochiqlik belgilari birlashadi.

Mehmonxona xodimining nutqiy portretida esa boshqa funksional nisbat kuzatiladi. Xizmat ko‘rsatish muhiti kommunikanntdan nafaqat axborot berishni, balki mijozga nisbatan e’tibor va kasbiy etiketni namoyon qilishni ham talab qiladi. Shu sababli tabassum, nazoratlangan

nigoh, tana orientatsiyasi va ovoz ohangi xizmat ko'rsatuvchi shaxsning professional portretini shakllantiruvchi markerlarga aylanadi. [3, 89-b.]. Mehmonxona diskursining o'zida ham noverbal vositalar terminologik birliklar bilan uyg'unlashib, xizmat jarayonining pragmatik mazmunini konkretlashtirishi kuzatiladi.

O'zbek turistik muloqotida mezbonning nutqiy portretini shakllantirishda mehmondo'stlik va ehtirom bilan bog'liq noverbal belgilar alohida funksional qiymat kasb etadi. Qo'lni ko'ksiga qo'yish singari milliy xususiyatga ega harakatlar raqamli turistik reprezentatsiyalarda ham milliy kommunikativ xulqni ifodalovchi vosita sifatida qo'llanishi qayd etilgan. Masalan, do'ppi kiygan va qo'lini ko'ksiga qo'ygan personajlarning turistik stiker hamda tasvirlarda qo'llanishi milliy ishoraning sotsiomadaniy integratsiyasini yuzaga keltiradi. Bu holat noverbal markerning individual xatti-harakat chegarasidan chiqib, tipik kommunikativ portret belgisiga aylanishini ko'rsatadi. [4, 82-b.].

Ingliz va o'zbek materiallarini qiyoslash nutqiy portretni shakllantiruvchi sifatlar o'rtasida umumiylik mavjud bo'lsa-da, ularning noverbal realizatsiyasi madaniy me'yorlarga bog'liqligini ko'rsatadi. Ingliz turistik xizmat muhitida kasbiy rolni belgilashga xizmat qiluvchi noverbal xulq nisbatan me'yorlashtirilgan shaklda namoyon bo'lsa, o'zbek kommunikativ muhitida mehmondo'stlik va samimiylilik bilan bog'liq markerlar nutqiy portretning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. [5, 15-b.]. Tahlil natijalari samimiylilik, mehmondo'stlik va kasbiy etikaning turistik muloqotda faqat verbal vositalar bilan emas, noverbal markerlarning funksional uyg'unligi orqali ham yuzaga chiqishini ko'rsatdi. Bunda noverbal birlik kommunikaning muayyan pragmatik sifatini faollashtirib, uning yaxlit nutqiy portretini shakllantirishda ishtirok etadi.

Tahlil asosida noverbal nutqiy portretning shakllanishini quyidagi bog'lanish orqali tavsiflash mumkin: noverbal marker → kommunikativ xulq → pragmatik sifat → nutqiy portret. Masalan, tabassumning o'zi avtomatik ravishda "samimiy kommunikan" portretini hosil qilmaydi. Uning nigoh, ovoz ohangi, tana orientatsiyasi va konkret vaziyat bilan mos kelishi ushbu pragmatik sifatning yuzaga chiqishiga imkon beradi. Demak, nutqiy portretni shakllantirishda alohida noverbal birlikdan ko'ra birliklararo funksional muvofiqlik muhimroq hisoblanadi.

1-jadval. Turistik muloqotda noverbal birliklarning nutqiy portret yaratish xususiyatlari

Kommunikativ rol	Yetakchi noverbal markerlar	Shakllanuvchi pragmatik sifat	Nutqiy portret
Gid	nigoh, yo'naltiruvchi jest, tana holati, ovoz	ishonchlilik, ochiqlik	professional gid
Mehmonxona xodimi	tabassum, nigoh, tana orientatsiyasi, ohang	e'tibor, vazminlik	xizmat ko'rsatuvchi professional

Mezbon	mimika, ehtirom jestlari, ohang	samimiylik, hurmat	mehmondo'st mezbon
Turist	nigoh, mimik reaksiya, tana harakati	qiziqish, rozilik yoki noqulaylik	faol yoki ehtiyotkor adresat

Jadvaldagi tasnif noverbal birlikning nutqiy portret yaratish imkoniyati uning shakliy xususiyatidan emas, kommunikativ rol bilan bog'langan pragmatik funksiyasidan kelib chiqishini ko'rsatadi. Bir xil tabassum gid, mehmonxona xodimi yoki mezbon portretida turli funksional yuklama olishi mumkin. Shunga ko'ra, noverbal nutqiy portretni tahlil qilishda "qaysi belgi qo'llandi?" savolidan ko'ra "ushbu belgi konkret kommunikativ rolni qanday xarakterladi?" degan mezon ustuvor bo'lishi lozim.

Muhokama. Olingan natijalar turistik muloqotda nutqiy portretning shakllanishi verbal nutq bilan chegaralanmasligini ko'rsatadi. Noverbal birliklar kommunikaning kasbiy mavqei, muloqot uslubi va adresatga munosabatini aniqlashtirib, uning kommunikativ qiyofasini shakllantirishda ishtirok etadi. Jestning nutq bilan uzviy aloqada ma'no hosil qilishi A. Kendon tomonidan ham kommunikativ faoliyatning muhim xususiyati sifatida asoslangan [2]. Shu nuqtayi nazardan mimika, nigoh, tana holati va paralingvistik belgilarni nutqiy portretning ikkilamchi ko'rsatkichlari sifatida emas, verbal xulq bilan birgalikda ishlaydigan pragmatik markerlar sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Ingliz va o'zbek turistik muloqotidagi farq noverbal vositalarning mavjudligida emas, ularning kommunikativ rolni xarakterlash usulida namoyon bo'ladi. Ingliz xizmat ko'rsatish muhitida nazoratlangan mimika, me'yoralashtirilgan nigoh va vaziyatga mos tana harakatlari professional nutqiy portretning shakllanishiga xizmat qiladi. O'zbek kommunikativ muhitida esa ehtirom jestlari, samimiy mimika va mehmon bilan bevosita aloqa o'rnatishga xizmat qiluvchi noverbal xulq mehmondo'st mezbon portretini kuchaytiradi. Madaniyatlararo muloqotda bunday tafovutlarning yuzaga kelishi kommunikativ xulqning madaniy me'yorlar bilan bog'liqligi orqali izohlanadi [5, 15-b.].

Tahlilning muhim natijasi shundaki, nutqiy portret alohida noverbal belgining tayyor ma'nosidan emas, noverbal markerlarning kommunikativ rol va vaziyat bilan funksional muvofiqlashuvidan shakllanadi. Bir xil tabassum professional xushmuomalalik, samimiy munosabat yoki kommunikativ ochiqlikni ifodalashi mumkin. Uning konkret pragmatik qiymatini kommunikaning roli, verbal nutq, vaziyat va boshqa noverbal markerlar belgilaydi. Shu asosda turistik muloqotdagi noverbal nutqiy portretni dinamik pragmatik tuzilma sifatida baholash mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari turistik muloqotda noverbal birliklar kommunikaning nutqiy portretini shakllantiruvchi funksional-pragmatik vositalardan biri ekanligini ko'rsatdi. Mimika, jest, nigoh, tana holati va paralingvistik belgilar alohida qo'llanganda emas, kommunikativ vaziyat

va verbal nutq bilan uyg'unlashganda shaxsning kasbiy hamda kommunikativ xususiyatlarini aniqroq namoyon qiladi.

Gid nutqiy portretida kasbiy kompetentlik, ishonchlilik va kommunikativ ochiqlikni ifodalovchi markerlar yetakchilik qilsa, mehmonxona xodimi portretida e'tibor, vazminlik va xizmat etiketiga muvofiqlik ustuvorlik qiladi. O'zbek turistik muloqotida mezbbon portretining shakllanishida samimiylilik, ehtirom va mehmondo'stlikni ifodalovchi noverbal birliklarning funksional salmog'i kuchliroq namoyon bo'ladi. Bunday farqlanish kommunikativ rol bilan bir qatorda milliy-madaniy me'yorlarning ham nutqiy portret shakllanishiga ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Noverbal markerning pragmatik qiymati oldindan qat'iy belgilangan mazmun sifatida qaralmasligi lozim. Bir xil mimik yoki kinetik birlik kommunikantning roli, vaziyat va boshqa belgilar bilan munosabatiga ko'ra turli pragmatik sifatlarni faollashtirishi mumkin. Shu asosda noverbal marker → kommunikativ xulq → pragmatik sifat → nutqiy portret munosabati turistik muloqotda kommunikant qiyofasining shakllanish mexanizmini tavsiflovchi izchil model sifatida ajratildi.

Shunday qilib, turistik muloqotdagi nutqiy portretni verbal va noverbal vositalar integratsiyasida shakllanuvchi dinamik pragmatik tuzilma sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuv kommunikantning qanday gapirishini emas, uning muloqot jarayonida qanday kommunikativ qiyofa yaratishini ham tahlil doirasiga kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kress G., van Leeuwen T. Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. London: Arnold, 2001. B. 24–33.
2. Kendon A. Gesture: Visible Action as Utterance. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
3. Hall E. T. The Hidden Dimension. New York: Doubleday, 1966. B. 89.
- Ashurova D. U. Lingvokulturologiya. Toshkent: Fan, 2011. B. 82.
4. Spencer-Oatey H. Culturally Speaking: Managing Rapport through Talk across Cultures. London: Continuum, 2000. B. 15.